



*Axrorjon YUSUPOV,*  
*Qo'qon davlat universiteti, PhD*  
*E-mail: axrorjon201911@gmail.com*

*O'zbekiston Milliy universiteti professori, s.f.d K.Mirzaaxmedov taqrizi asosida*

#### SCIENTIFIC-THEORETICAL APPROACHES TO THE SOCIO-POLITICAL ACTIVITY OF CITIZENS.

Abstract

This article presents the analysis of political processes in Uzbekistan, characterized by the reformist role of the state and active policy, the parameters of citizen activity by foreign scientists.

**Keywords:** Legal-democratic, state and just society, social, economic, political activity, political parties, political institutions.

#### НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ГРАЖДАН.

Аннотация

В статье представлен анализ политических процессов в Узбекистане, характеризующихся реформаторской ролью государства и активной политикой, а также параметров гражданской активности, исследованных зарубежными учёными.

**Ключевые слова:** правовое, демократическое, государственно-справедливое общество, социальное, экономическое, политическая активность, политические партии, политические институты.

#### FUQAROLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGIGA DOIR ILMYIY-NAZARIY QARASHLAR.

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar davlatning islohotchilik roli va faol siyosat olib borishi bilan xarakterlanishi, fuqarolar faolligi parametrlari xorijlik olimlar tahlillari berilgan.

**Kalit so'zlari:** Huquqiy-demokratik, davlat va adolatli jamiyat, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faollik, siyosiy partiyalar, siyosiy muassasalar.

**Kirish.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, asosiy vazifa insonparvar, huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishdan iborat bo'ldi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson uchun, uning kelajagi uchun degan ezgu tamoyilni to'liq amalga oshirish biz uchun doim eng muhim ustuvor vazifa bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Shuningdek, bugungi kunda jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan har bir islohot, albatta, har bir fuqarodan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faollikni talab etadi.

Jamiyatimizda globallashuvning ta'siri natijasida odamlarda ijtimoiy-siyosiy faollik yuksalib bormoqda, barcha sohalar va yo'nalishlarda modernizatsion islohotlar amalga oshirilmogda. Ulardan ko'zlangan maqsad – «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat[1].

Jamiyat siyosiy hayoti har xil siyosiy institutlar, siyosiy jarayonlar bilan bog'liq hamda u o'ziga xos ma'no va mazmunga ega. Siyosiy institutlar bu davlat, parlament, hukumat, siyosiy partiyalar, siyosiy muassasalar, lobbizm faoliyatiga oid bo'lgan tuzilmaviy tizimlardir.

Siyosiy jarayonlar siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, individlar munosabati sifatida namoyon bo'ladi va siyosiy faoliyatning murakkab, ko'p sub'ektlilik va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Siyosiy jarayonlar tushunchasi hokimiyatga intiluvchi yoki siyosiy qarorlarga ta'sir o'tkazishni ictayotgan sub'ektlar, elitalar, manfaat guruhlari, partiyalar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, ixtilofli manfaatlar, mafkuralar, maqsadlar, qadriyatlar, ularni kelishtirish usullari bilan ham bog'liq. [2, 283]

«Siyosiy jarayon» tushunchasi – biror yo'nalishga ega harakat, holatlarning izchil almashinishi, biror natijaga

erishishiga qaratilgan faoliyatlar birligini anglatadi. Shu bilan birga siyosiy jarayon tushunchasi o'z navbatida siyosiy holatlar va hodisalarning ichki bog'liqlikka ega zanjir, siyosat sub'yektlarining hokimiyatga qaratilgan harakatlari o'zaro munosabatlari birligidir.

Siyosiy jarayonlar deb, jamiyatning siyosiy hayotida turli xildagi voqea-hodisalarning ro'y berib turishi, ularning ob'yektiv qonuniyatlar harakati asosida davom etishi va shu asosda jamiyatning siyosiy jihatdan rivojlanib borishiga aytiladi.

O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar davlatning islohotchilik roli va faol siyosat olib borishi bilan xarakterlanadi. Bu – bizning davlatchilik an'analarimiz bilan belgilanadi. O'rta Osiyoda «hokimiyat – jamiyat» munosabatlarida doimo davlat asosiy rol o'ynagan. Bugun «fuqaro – jamiyat – davlat» tizimi qaror topmoqda.

O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar ishtirokchilarining ko'pchiligini asosan davlat institutlari tashkil etadi. Bu yana fuqarolik jamiyatining u qadar rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Ayni vaqtda siyosiy jarayonlar ishtirokchilari (sub'yektlar) sonining ortishiga qaratilgan harakatlar kuchaymoqda.

Siyosiy jarayonlarda ishtirok etuvchi sub'ektlar siyosiy jarayon ishtirokchisi deyiladi.

Siyosiy ishtirok ijtimoiy-siyosiy jamoa a'zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimiyat tarkibiga jalb etilganligini (muayyan bosqichda esa xalqaro hamjamiyat munosabatlariga ham) bildiradi. U demokratik konsepsiyalarda, siyosiy modernizatsiya va siyosiy rivojlanish, siyosiy madaniyat, siyosiy partiyalar faoliyatida asosiy tushunchalardan biri sifatida qo'llaniladi.

Siyosiy ishtirok sub'ektlariga fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, siyosiy va jamoatchilik institutlari kiradi.

Ko'lamli jihatidan siyosiy ishtirok: mahalliy, mintaqaviy, umumdavlat va xalqaro siyosat darajasida amalga oshiriladi.

Siyosiy ishtirok to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va bilvosita amalga oshirilishi mumkin, shuningdek, umumiy va cheklangan; ixtiyoriy va majburiy; an'anaviy, faol va passiv, legitim va nolegitim, qonuniy va qonunga xilof bo'lishi mumkin.

Siyosiy ishtirok shakllari ham turlicha. Ularga:

-axborot qabul qilish va uzatish;

-siyosat va davlat arboblari hamda tashkilotlari bilan muloqot;

-saylov va boshqa siyosiy kampaniyalarda ishtirok;

-namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik harakatlarida, ozodlik urushlarida;

-boshqaruv va o'z-o'zini boshqaruvda,

-qonunlar yaratish, ularni himoya qilish va ularga amal qilishda;

-siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy xarakterli faoliyatidagi ishtirok kiradi.

Siyosiy ishtirok uchun eng qulay sharoitni demokratik va huquqiy davlatlar yaratadi. Siyosiy jarayonlarda ishtirok etish siyosiy faoliyat deyiladi.

Siyosiy faoliyat – bu muayyan jamoaning jamoaviy manfaatlarini shakllantirish va amalga oshirishdan iborat bo'lgan sub'ektlarning faoliyati. Bunday maxsus manfaatlarini ifodalovchi muhim materiallar va intellektual resurslarga ega bo'lgan guruhlar – elita guruhlar hisoblanadi. Ijtimoiy elitalar siyosiy aloqalarni o'rnatishning o'ziga xos uculiga ega va bu maqsadga erishishga faol intilishadi.

Ijtimoiy faollik shaxs faoliyatining muhim tomonlaridan biridir. U shaxsning jamiyat va jamoa ishlaridagi ishtirokida namoyon bo'ladi va ma'lum darajada siyosiy va ahloqiy o'zlikni anglashga asoslanadi.

Ijtimoiy faollikni tarbiyalash - bu nafaqat jamoat ishlarida ishtirok etish darajasining oshishi, balki yoshlarning ahloqiy yo'nalganligini aniqlovchi motivlarning shakllanishi hamdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'sha davrdagi adabiyotlarda qayd etilishicha, O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar davlatning islohotchilik roli va faol siyosat olib borishi bilan xarakterlanadi. Bu – bizning davlatchilik an'analarimiz bilan belgilanadi. O'rta Osiyoda «hokimiyat – jamiyat» munosabatlarida doimo davlat asosiy rol o'ynagan. Bugun «fuqaro – jamiyat – davlat» tizimi qaror topmoqda.

A.Jalilov, U.Muxammadiev fuqarolik jamiyati asoslari nomli o'quv qo'llanmasida taxlil qilib fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlarini va mavjud muammolarning echimini chuqur anglashni taqozo etadi. Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu partiyalarga a'zolikni nazarda tutuvchi siyosiy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslar va ijtimoiy harakatlarni anglatadi. Shu ma'noda jamiyat uchun foydali bo'lgan turli dasturlar va jamoat birlashmalarida ishtirok etish ham fuqaroviy faollikka kiradi. [3,264]deb ta'kidlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** AQSHlik siyosatchi olimlardan, xususan, C.Xantington (1968 y.) fuqarolarning siyosiy faoliyatda ishtirok etish darajasini o'rganib, siyosiy faollikni uch darajaga, ya'ni past , o'rta, yuqori darajalarga bo'lgan.

L.Milbreyt (1981 y.) esa siyosiy faoliyatda ishtirok etishni ikki asosiy ko'rinishga, ya'ni qonuniy va faol ko'rinishlarga bo'lib sinflashtirgan. Qonuniylik ko'rinishining o'zi ham an'anaviy (qonunda ruxcat etilgan) va noan'anaviy (noqonuniy) siyosiy faoliyatda ishtirok etish turlariga bo'linadi. Faollik ko'rinishini esa C.Xantington kabi past , o'rta, yuqori darajalarga bo'ladi.[4, 17].

AQSH olimlarining yuqoridagi fikrlari to'g'ri bo'lsa-da, lekin ushbu darajalar qanday belgilanadi, ushbu darajalarni belgilash nega kerakligi mavhumligacha qolgan, shuning uchun ham bugungi kunda jamiyatda fuqarolarning siyosiy faolligini siyosiy faollik darajalarini belgilovchi mezonlar asosida belgilanishi lozimdir.

Bundan tashqari, siyosiy jarayonlarda ishtirok etishni fuqaroning jamiyatdagi o'zaro munosabatlaridan kelib chiqib, shaxsiy va institutlashgan faollik turiga ham bo'lish mumkin. Shaxsiy faollikning institutlashgan faollikdan farqi shaxsiy faollik bu oddiy faollik bo'lib saylovlarda ishtirok etish bo'lsa, institutlashgan faollik esa murakkab faollik bo'lib, turli ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatida ishtirok etishdir.

Buni davlatimiz rahbari shunday izohladi “Fuqarolarimiz huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularning siyosiy faolligini oshirishda ham Konstitutsiyaning o'rni va ahamiyati beqiyoc ekanini alohida ta'kidlash joiz”[5].

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasiga binoan fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar[6].

Ushbu siyosiy erkinliklar fuqarolar tomonidan shaxsning rivojlanish manfaatlarini, o'zini o'zi ifodalash va o'zini o'zi himoya qilish hamda ijtimoiy va siyosiy hayotda faol ishtirok uchun qo'llaniladi. Bunday demokratik institutlar jamiyat yoki davlatning har qanday masalaci bo'yicha jamoaviy va shaxsiy fikrlarni o'zida aks ettiradi. savodxonligi jihatidan ham faol bo'lib, ular siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishlari va bu orqali ta'sir etishga ishonadilar. Bu ishtirok etish orqali ular o'zlarining jamiyat hayotidagi ma'lum bir mavqeiga ega ekanligini ko'rsatadilar. Bunday holat ya'ni ijtimoiy-siyosiy hayotga ishtirok etishdan manfaat ko'rish imkonini olib keladi. Bunday jamiyatda fuqarolar o'zaro bir biridan siyosiy-madaniy, siyosiy-mafkuraviy, siyosiy-me'yoriy, siyosiy-iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy, siyosiy-axborot tizimlariga qarab bir-biridan ajralib turadi. Ushbu tizimlarni barchacini o'zida mujassamlashtirgan fuqarolarni uchratish, albatta, mushkul. Lekin siyosiy faol fuqarolarning tarkibi bunday guruhlardan tashkil etilca, faollik ham kuchayadi ham jamiyat poydevori mustahkamlanadi.

Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi quyidagi siyosiy madaniyat darajalariga ham bog'liq ya'ni:

Tafakkur qilish, anglash darajasi, ba'zi adabiyotlarda bu daraja “dunyoqarash darajasi” deb ham ataladi. Unga jamiyat, guruh va alohida shaxsning siyosat hamda dunyoning siyosiy manzaraci haqidagi tasavvurlari, shuningdek, siyosiy hayot ishtirokchilari amal qiluvchi normalar, qadriyatlar, ramzlar, ko'rsatmalar kiradi. Bu darajada shaxs siyosat dunyosida o'z o'rnini aniqlab oladi.

**Tahlil va natijalar.** AQSHlik olimlar C.Verba va G.Almondlar “Fuqarolik madaniyati” asarida AQSH, Angliya, Germaniya, Italiya, Meksika davlatlarining siyosiy hayotini o'rganib siyosiy faoliyatni uch turga, ya'ni “patriarxal”, “bo'ysunuvchan”, “faollik” turlariga bo'lishadi. Patriarxal, ya'ni tarixiy-hududiy kelib chiqishiga ko'ra qabila, urug'larga borib taqaladigan siyosiy faoliyat bilan bog'liqlik. Bo'ysunuvchan siyosiy faoliyatda fuqarolarning hayoti siyosiy faoliyatga qaratilgan bo'lsa-da, ularning siyosiy ishtiroki juda sust bo'ladi. Uchinchi tur bu siyosiy faollik bo'lib, bunday turda

fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki kuchli bo'ladi. Fuqarolar siyosiy jarayonlarda faol qatnashadi va o'z manfaatlarini jarayonlarga ta'sir etishini tushunadi[7].

**Xulosa va takliflar.** Siyosiy jarayonlarda fuqarolarning o'zi shaxsan xohlab ishtirok etishi mumkin. Yoki ma'lum guruh, jamoaviy yoki partiyaning a'zosi sifatida manfaatlarini ko'zlab ishtirok etadi.

Yuqoridagi turli qarashlar va ta'limotlarni o'rganish barobarida "siyosiy faollik" tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltiriladi, ya'ni siyosiy faollik bu fuqarolarning hayotiy

muhim masalalarda o'zaro jamoaviy manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida hamkorlikdagi faoliyatidir.

Bunday faollik jamiyat hayotidagi muhim jarayonlar bo'lib, ushbu jarayonlar fuqarolarning maqsadi hamda manfaati uchun xizmat qiladigan ijtimoiy-siyosiy faoliyatdir. Ana shunday ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bugungi kunda fuqarolardan faol ishtirok etish talab qilinadi. Bunday faollikni oshirishda fuqarolik jamiyatining turli tashkilotlari hamda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati muhimdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йилнинг 19 сентябрида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. -<http://uza.uz>-ЎЗА-Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. 20.09.2017.
2. Политология. Ўқув қўлланма. (муаллифлар жамоаси) Х.Қосимова 2-бўлим. 3-мавзу. А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. «ЎАЖБНТ» маркази. Т. 2002. - 283 бет.
3. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма/ А. Жалилов, У. Муҳаммадиев, Қ. Жўраев ва бошқ. — Тошкент, 2015, 264-б.
4. Барсегян В.М. "Политическая активность молодежи как канал социальной мобильности в современном российском обществе" дис. кан. пол. наук. -Москва, -2015. Стр 17.
5. Ш.Мирзиёев Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови . -Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –Б.50.
6. Ўзбекистон Республикасининг конституцияси Т. "Ўзбекистон" 2019. 33 модда.
7. Зуляра Ю.А. Политология Том II Учебное пособие. 2011. Типология Алмонда и Вербы